

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISHNING STRUKTURASI VA MAZMUNI

Oltmishev Toxir Turg'unovich

*A.Qodiriy nomidagi JDPI, Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrası
o'qituvchisi, Jizzax, O'zbekiston
e-mail:daddy111266@gmail.com*

***Annotatsiya.** Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan Tasviriy san'at o'quv fani o'z mazmuniga ko'ra integrativ fan hisoblanadi. Chunki uning mazmunida Tasviriy san'atdan tashqari amaliy bezak san'ati, badiiy hunarmandchilik, me'morlik va dizaynga oid o'quv materiallarini o'zlashtirish belgilab qo'yilgan. Shuningdek, tasviriy san'at ta'limining mazmuni 1-4, 5-7-sinflarda o'qitilishida muayyan tafovutlar mavjud va tasviriy san'atning uzluksiz tizimi mantiqiy rivojlanib borish prinsipi asosiga quriladi.*

***Kalit so'zlar:** san'at, natura, idrok, kompozitsiya, estetika, konstruktiv, tasviriy.*

***Аннотации.** Предмет Изобразительное искусство, преподаваемый в общеобразовательных средних школах, является интегративным предметом по своему содержанию, поскольку по содержанию, помимо изобразительного искусства, декоративно-прикладного искусства, декоративно-прикладного искусства, имеются также определенные различия в содержании. Имеет смысл образование изобразительного искусства в 1–4, 5–7 классах и непрерывная система изящных искусств, основанная на принципе развития.*

***Ключевые слова:** искусство, природа, восприятие, композиция, эстетика, конструктив, образность.*

***Annotation.** The subject Fine Arts taught in general secondary schools is an integrative subject in its content, because in its content, in addition to the Fine Arts, applied decorative arts, arts and crafts, me There are also certain differences in the content of fine arts education in grades 1-4, 5-7, and a continuous system of fine arts makes sense. is based on the principle of development.*

***Keywords:** art, nature, perception, composition, aesthetics, constructive, figurative.*

Tasviriy san'at ta'limi umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-7-sinflarida haftasiga 1 soatdan o'qitilib, uch turdagi faoliyat (san'atshunoslik asoslari, tasviriy faoliyat (naturaga qarab tasvirlash) hamda kompozitsion faoliyat) va olti yo'nalish (san'atshunoslik asoslarining yetakchi yo'nalishi - suhbat, rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, me'morlik, amaliy va dizayn san'ati)dagi dars turlariga bo'linadi. Ayrim dars turlari 1-4-sinflarda o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bir-biridan farq qilishi nazarda tutiladi. Jumladan, 5-7-sinflarda o'qitiladigan hamda o'quvchilarda san'at asarlarini badiiy-estetik idrok etishga o'rgatuvchi san'atshunoslik asoslari darslari boshlang'ich sinflarda suhbat tarzidagi borliqni va san'atni idrok etish shaklida olib boriladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan Tasviriy san'at o'quv fani o'z mazmuniga ko'ra integrativ fan hisoblanadi. Chunki uning mazmunida Tasviriy san'atdan tashqari amaliy bezak san'ati, badiiy hunarmandchilik, me'morlik va dizaynga oid o'quv materiallarini o'zlashtirish belgilab qo'yilgan. Shuningdek, tasviriy san'at ta'limining mazmuni 1-4, 5-7-sinflarda o'qitilishida muayyan tafovutlar mavjud va tasviriy san'atning uzluksiz tizimi mantiqiy rivojlanib borish prinsipi asosiga quriladi. Masalan, boshlang'ich sinflardagi borliqni idrok etish darslari 5- sinfdan boshlab san'atni idrok etish tarzida davom ettirilib, asosiy e'tibor bevosita o'quvchilarda san'at asarlarini badiiy- estetik idrok etishga oid bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltiriladi va faoliyatning bu turi tasviriy san'atdan Davlat ta'lim statsdarti hamda o'quv dasturida San'atshunoslik asoslari bloki tarzida beriladi.

Faoliyat turlari bo'yicha Tasviriy san'at o'quv fani quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi.

Borliqni idrok etish. Bu yo'nslisdagi darslarda boshlang'ich sinf o'quvchilarini atrof-muhitni estetik idrok etishga o'rgatish vositasida insoniyat uchun dolzarblashib borayotgan inson va tabiat munosabatlarini teranroq anglash, tevarak-atrof va voqelikdagi go'zallikni idrok etish ko'nikmalarini shakllantirish orqali o'quvchilarda estetik va ekologik madaniyat elementlari tarkib toptirib boriladi. Bu bo'lim tasviriy san'at ta'limi mazmunida alohida o'rin egallaydi. U san'atning hayot bilan aloqasini tushunishga, kuzatilayotgan voqeliklarning turli-tuman holatlar, undagi shakllar, ranglar xilma-xilligini ko'ra olishni o'rgatadi. Bu bo'limda tasviriy san'atda tasvirlangan voqeliklar, shuningdek, me'morlik obidalarini tabiat bilan hamohanglikda borliqning bir qismi sifatida anglash, estetik idrok etish ob'ekti tariqasida o'rganiladi.

Sanatni idrok etish. San'atshunoslik faoliyatining asosiy shakli sifatida bu turdagi darslarda keng ma'noda Tasviriy san'at o'quv fani mazmuniga kiritilgan barcha san'at turlari bo'yicha namunalarni, shu jumladan umuminsoniy va milliy qadriyat darajasida e'tirof etiladigan mumtoz maqomdagi san'at asarlarini o'rganish orqali o'quvchilarni badiiy-estetik tarbiyalash bilan bir qatorda ularda vatanparvarlik hamda baynalminallik fazilatlarini tarbiyalash ko'zda tutiladi. Zero, tasviriy san'at ta'limi mazmunida O'zbekiston tasviriy va amaliy san'ati, me'morligiga oid o'quv materiallari bilan bir qatorda Sharq va jahon tasviriy san'ati, ularning muhim tendensiya va ana'analari, mashhur rassomlarning hayoti va ijodi bilan tanishtirib borish jarayonida ularda vatanparvarlik va baynalminallik sifatlari tarkib toptirib boriladi. Shuningdek, san'atni idrok etish darslari san'at turlarining spesifik xususiyatlari, o'ziga xos ifodaviy vositalari, ularni tarixiy an'analari, zamonaviy texnologiyalar asosida yaratish prinsiplarini o'rgatish yo'sinida tasviriy san'at ta'limini takomillashtirish, muayyan yo'nalishlarini

rivojlantirish istiqbollari belgilanadi.

Tasviriy faoliyat darslari, asosan, tasviriy san'at turlari (rangtasvir, grafika va haykaltaroshlik) bo'yicha naturaga qarab tasvirlash darslari shaklida tashkil etilib, bu turdagi darslarda o'quvchilarning tasviriy savodxonliklari shakllantirib boriladi, ya'ni naturaga qarab tasvirlash darslarida o'quvchilarda ob'ekt (natura)ni maqsadli kuzatish, tahlil qilish, buyumlarning konstruktiv tuzilishi va boshqa parametrlariga ko'ra tasviriy vosita va material tanlash va amaliy tasviriy faoliyatda maqsadga muvofiq tarzda qo'llash kompetensiyalari tarkib toptiriladi. Bu darslarda olingan nazariy bilim va egallangan amaliy malakalar kompozitsion faoliyat darslari bilan uzviy aloqadorlikda tashkil etiladi.

Kompozitsion faoliyat tasviriy san'at darslarining asosiy qismini tashkil etadi. Unda Rangtasvirda kompozitsiya, Grafikada kompozitsiya, Haykaltaroshlikda kompozitsiya, Dizaynda kompozitsiya, Amaliy bezak san'atida kompozitsiya yo'nalishlarida darslar tashkil etilib, asosiy e'tibor o'quvchilarning ijodiy fantaziyalarini rivojlantirish, naturaga qarab tasvirlash darslarida egallagan bilimlari, borliqni idrok etish jarayonida olgan tasavvur va taassurotlari, qolaversa Davlat ta'lim standarti, o'quv dasturida ko'rsatilgan namunaviy mavzular, topshiriqlar, adabiy asarlar (ertak, rivoyat, she'r, hikoya va h.k.) syujetlari asosida kompozitsiya yaratishga oid bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish orqali bolalarda ijodkorlik kompetensiyalari rivojlantirib boriladi. Shuni qayt qilib o'tish joizki yuqoridagila fikrlardan kelib chiqib umumta'lim maktablarida tasviriy san'at darslari soatini haftasiga hech bo'lmaganda 2 soat qilib belgilash zarur. Bu foydadan holi emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent, O'zbekistan, 2017. - 488 b.
2. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent. O'zbekiston, 2017. 104 b.
3. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratok O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent. O'zbekiston, 2016. - 56 b.
4. Abdirasilov S. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma Toshkent. "Ilm-ziyo" 2011 yil
5. Abdirasilov S., Tolipov N. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma Toshkent Aloqachi, 2007 yil.
6. Abdirasilov S. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. Darslik Toshkent. Fan va texnologiya nashriyoti 2012 yil

7. Ro'ziyev E.I., Ashirboyev A.O. Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi. Darslik, Toshkent .Fan va texnologiya. 2010 yil.
8. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Toshkent: "Ta'lim taraqqiyoti". O'zbekiston
9. Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining axborotnomasi. 1999. 86- 167-b.
10. Orishev, Jamshid (2021) "PROJECT FOR TRAINING PROFESSIONAL SKILLS FOR FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION," *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*: Vol. 2021 : Iss. 2 , Article 16.
11. Зойиров, К. А., & Олтмишев, Т. Т. (2019). Современные проблемы формирования конструктивно-технологических знаний и умений у будущих учителей. *Молодой ученый*, (49), 492-494.
12. Oltmishev, T. (2020). Современные проблемы формирования конструктивно-технологических знаний и умений у будущих учителей: Современные проблемы формирования конструктивно-технологических знаний и умений у будущих учителей. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1-8.
13. Oltmishev, T. (2020). ХАЙКАЛТАРОШЛИК МАШҒУЛОТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ МЕТОДИКАСИ: ХАЙКАЛТАРОШЛИК МАШҒУЛОТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ МЕТОДИКАСИ. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
14. Oltmishev, T. (2020). ТАСВИРИЙ САНЪАТ АСАРЛАРИДА ОБРАЗЛАРНИ МУХЛИСЛАР ИДРОК ЭТИШИ ҲАҚИДА МУШОҶАДАЛАР. *Архив Научных Публикаций JSPI*.